



MUMTOZ MUSIQANI TALABALARGA O'RGATISHDA USTOZ SHOGIRT AN'ANALARI

Abduraximov O'ktam

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Musiqqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 1-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10223832>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil
Ma'qullandi: 25- November 2023 yil
Nashr qilindi: 30-November 2023 yil

KEY WORDS

ustoz - shogird an'analari, ta'lim, tarbiya, musiqa savodi, madaniyat, o'qitish mehanizmlari

ABSTRACT

Mazkur maqolada oliy ta'limning musiqa ta'limi jarayonida talabalarga mumtoz musiqani o'rgatishda ustoz-shogird an'analari asosida musiqiy ko'nikmalarini rivojlantirish haqida ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar yuritilgan.

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida tub islohotlar davom etmoqda. Hozirda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida yakuniy natijaga qarab ishlash, oliy ta'limda tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv laboratoriyalari, fan kabinetlari bilan ta'minlash, ta'limni takomillashtirilgan o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga chiqdi.

Ayniqsa, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratish zarurligi belgilangan¹. Integrativ va innovatsion jarayonlarning jadallashuvi musiqa ta'limida malakali, kasbiy shakllangan barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasini o'z oldiga qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, musiqa ta'limini yangi o'qitish metodlari, sifatli repertuar, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, ustozlar ijro an'analari izlab topish, sayqallash va o'rganishni taqozo etmoqda.

Davlatimiz Rahbarining, - "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur", - degan fikrlari aynan bugungi ta'limning strategiyasini belgilab berdi².

Musiqa san'ati hayotni bilish va odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish

¹ "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni. Əl. manzil: <https://lex.uz/docs/5841063>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. Elektron manzil: www.lex.uz

kuchiga bog'liqdir. Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo'lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko'rsatishdir. Shu ma'noda uning o'rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur'atda o'rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo'lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida "Ustoz - shogird" an'alarini tarkib toptirish va rivojlantirishga qadriyatli tus berildi. Masalan, xar bir ta'lim muassasasining pedagog xodimlariga taxsil oluvchi o'quvchilar "Ustoz - shogird" an'analari asosida birlashtirib chiqildi. Bu ayniqsa musiqa sohasida hususan mumtoz xonandalik, maqom ijrochiligi yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar va ta'lim beruvchi ustozlar uchun ayni muddao bo'ldi. Negaki musiqa san'ati yillar mobaynida o'rganilib, asrlardan asrlarga yetib kelishida ham aynan ustoz -shogird an'analari o'z tasirini ko'rsatgan. Ustoz-shogird an'analari eng qadimgi davrlardan mavjud bo'lib, ularni mazmun-mohiyati yillar o'tishi, jamiyat ijtimoiy formatsiyalarining o'zgarishi asosida o'zgarib davr talablariga moslashtirib boriladi. Qadim millatimiz musiqa sohasida deydik XII XIII asrlarda davridagi saroy musiqashunos olimlarining izlanishlari o'laroq O'n ikki maqom yaratilgan bo'lsa ularning izdoshlari Shashmaqomni ayni shu O'n ikki maqom o'zagida yaratdilar. Bugungi kunda ham bir qancha maqomdon xonandalarning, xofizlarning o'z ustoz-shogirdlik maktablari mavjud. Bu maktablardan yetuk professional maqom xonandalari yetishib chiqmoqdalar va el nazarida, ardog'ida yashamoqdalar. "Yaxshi ustozlar" sog'lom aql-hushli farzandlarni, elni baloqazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlarni, yaxshi hayot, porloq kelajakni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan avlodni tarbiyalaydi. U yoshlar qalbida o'z dini, xalqi, yurtiga mehr uyg'otadi, ularni halol mehnat evaziga rizq topib yashashga o'rgatadi, do'stligu-hamkorlik, hamjihatligu-hushravonlik, odamlarga faqat yaxshilik istash eng ezgu g'oyalardandir.

O'quvchilarga donishmandlik ustozlardan yuqadi, yodgorlik bo'lib qoladi. Ustoz muayyan bir yo'nalish, sohaning sir-sinoatlarini puxta egallagan hamda kasb - hunar o'zlashtirishni oliy darajaga yetkazgan shaxsdir. Aytaylik musiqa sohasida ustoz ashula aytib o'zining uslubini ya'ni ijro yo'ini, kuy chalib, o'zidan boshqacha yangiliklar qo'shib, musiqiy qobiliyatini, mahoratini nafis san'at darajasigacha ko'targan xofiz yoki sozanda. Ustoz tomonidan u muqadadas qobiliyat sifatida avaylab-asraladi va sevimli shogirdiga meros qilinadi.

Hozirgi zamon ilm-fan, texnika taraqqiyoti talablaridan biri yangicha fikrlaydigan, ijodiy tafakkur va qobiliyatga ega bo'lgan barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir. Ushbu harakatlar zamirida esa eng avvalo, shaxsning fidoyiligi, Vatanga va o'z xalqiga muhabbatini shakllantirish masalasi yotadi. Zero, har bir insonning barcha harakatlari u yoki bu darajadagi ijtimoiy manfaatlarga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodiyoti, musiqa san'ati, o'yinlari, bayramlar, san'at va hunarmandchilik, urf-odatlar milliy ta'lim va tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida yoshlarni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ustozlar an'anasini davom ettirishib, qator shogird san'atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Musiqa san'atida ta'lim berayotgan har qanday ustoz pedagog o'z yo'li va o'z uslubiyotiga ega. Boshqa sohalardan farqli jihati ham ayni shunda. Bir pedagog o'zining nazariy va amaliy bilimlari bilan bir qatorda o'z ovozi, ijro yo'li, o'z nafasi hamda o'z iqtidoriga ega va u o'z shogirdiga ayni shu jihatlarini singdiradi. Qachonlardir bu

bilimlarni u o'z ustozian o'rgangan. Boshqa biron bir sohada bunday ta'lim o'zini oqlamaydi. Misol uchun meditsina hodimi o'zi hohlagandek, o'z qo'lidan kelgan davolash usulini qo'llashga haqqi yo'q ular kitoblarda yozilgan nazariyaga tayanadilar va shu asnoda davolaydilar. Lekin musiqa san'atida yozilmagan qonunlar mavjudki ularni kitobdan o'qib bo'ladi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimini rivojlantirish va uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish ta'lim sohasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganida maktablarda barcha o'quv fanlari qatori, musiqa madaniyati fani uchun ham zamon talabi asosida yangi dastur yaratilgan. Ushbu dastur asosida o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratilib kelinmoqda. Chunki, musiqa o'z tabiatiga ko'ra, inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosatga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Har bir musiqa darsi talabalarni yangi bilimlar bilan boyitishi, ulaming ong-bilim doiralarini kengaytirishi, musiqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishi yoki ilgari o'rganganlarini takomillashtirishi kerak. talabalar darsdan-darsga go'yo pog'onadan-pog'onaga qadam qo'yganidek bilishning cheki yo'q narvondan olg'a intilib boradilar. Musiqa darslarida talabalarni musiqa sohasida har tomonlama rivojlantirish nazarda tutiladi, ulaming musiqaviy madaniyatiga zamin yaratiladi. Musiqa mashg'ulotlarida istisnosiz barcha talabalarning musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. Shuningdek, ularng orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'liab-quvvatlaydi. Ustozning darsdagi ishi barcha talabalarning darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalami hosil qilishlari uchun zamin yarata olishi shart. ustoz mahoratining mezoni talabaning o'zlashtirishi va intizomi bilan belgilanadi. U o'z ustida tinmay ishlasa, ta'lim va tarbiya sohasida ilg'or tajribalarini qo'llab talabalarni kuzatib va o'rganib ulardagi qobiliyat darajasi, o'zlashtirish ko'rsatgichlarini to'g'ri baholay olsa, uni o'z ishiga tadbiiq etsa, o'z pedagogik mahoratini oshirib borishi mumkin. Mahoratli ustoz hamisha shogirdlar orasida yuksak obro'ga ega bo'ladi, chunki u o'quvchilar qalbiga to'g'ri yo'l topa oladi. Zamonamiz taqozosi musiqa darslarini yanada jo'shqin, qiziqarli, ko'tarinki ruhda o'tishlari uchun yangi pedagogik texnologiyalami qo'lash yaxshi natija beradi. Bunday darslar o'quvchi talabalami bilim darajasini aniqlashga, baholash va rag'batlantirishga, jamoa bolib ishlashga va bir-birlarini fikrlarini hurmat bilan tinglashga keng imkoniyatlar beradi. Talabalami musiqiy did va musiqiy dunyoqarashini shakllanishiga asos soladi. O'qitish jarayoni o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlami qo'llashda ulami mustaqil erkin fikrlashga, o'z ustilarida ishlashga, izlanishga o'rgatadi. Har bir masalaga ijodiy yondashish mas'uliyatini sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarda foydalanishga eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedogogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bunda ko'p narsa o'qituvchining hayotiy tajribasiga, kuzatuvchanligiga, musiqaviy bilimlariga ham bog'liqdir. Darslar ham pedagogning aynan shu sifatlariga, uning tashabbuskorligi, ijodkorligiga tayanadi. Ya'ni o'qituvchi dasturga o'quv-tarbiyaviy zaruriyatdan kelib chiqqan holda o'zgarishlar kiritish mumkin. Albatta, bu o'zgarishlar uning shaxsiy ijodiy tajribasidan kelib chiqmog'i kerak. Musiqa san'ati yoshlarning ahloqiy dunyoqarashini boyitib, ularda hayotni go'zallik qonunlari asosida qurishga intilish uyg'otadi. Musiqaning yoshlarga tarbiyaviy ta'siri katta. Eng yaxshi musiqiy asarlarning mazmunini tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda nafaqat ichki kechinmalar, balki turli kishilar xarakteri, hayotiy hissiyotlari tasvirlanadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqaviy malakalarni shakllantirish musiqani idrok qilish va ijro etishga doir ayrim xarakterlarning qayta-qayta takrorlashni taqozo qiladi. Mashq, xarakterlarning mohiyatini chuqur anglash uchun ular erkin, badiiy-ijodiy darajada bajarilishi kerak. Taraqqiyparvar tajriba musiqa darslarining ko'paytirilishi o'quvchilarni toliqtirmaydi, aksincha, ulardagi charchoqni emotsional - qiziqarli vaziyatlar tashkil qilish orqali tarqatishga xizmat qiladi. Ijodiy - bilish faoliyatida o'quvchilarning muhim axloqiy-ma'naviy sifatlari shakllanib, ma'naviy xayotining tarkibiy qismiga aylana boradi. Me'yoriy hujjatlarda o'qituvchining yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishdagi roli aniq belgilab berilgan. Biroq musiqa o'qituvchisini ushbu faoliyatga kasbiy tayyorlash muammosining hal qilinmagan masalalari ko'p. Pedagogika institutlarining musiqa-pedagogika fakultetlariga kirgan talabalarni o'rganish ularning aksariyatida o'qituvchilik kasbiga qiziqish pastligini ko'rsatmoqda. Shu sababli pedagogik ta'limning asosiy vazifasi ularni, bolalarni musiqaviy tarbiyalashga yo'naltirish emas, balki ularni o'qituvchilik kasbiga qiziqtirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Natijada ko'pchilik bitiruvchilar musiqa darslarini tashkil etishning murakkabliklari, buning uchun oliy o'quv yurtida ko'p narsalarni o'rganib olish mumkin ekanligi, biroq o'rganmaganliklarini anglaydilar. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ma'anaviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlash, yosh o'qituvchilar musiqaning bolalarda qay darajada emotsional ko'tarinkilik hosil qilishini, musiqa darslarida jamoa jimligi, sukutining ahamiyati va uni yaratish muammolariga to'qnash keladilar. Musiqa darslarining o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi kamlik qiladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlash ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan shuni aytishimiz mumkin bo'ladiki ta'lim tizimida musiqa madaniyati fanining o'rni juda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Xalq so'zi 2017 yil, 18-noyabr. 1-bet
2. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent. 2006 yil.
3. Yo'lchiyeva M. An'anaviy yakka xonandalik Toshkent 2017 yil.
4. O.Matyobov "Maqomot", Toshkent, 2004 y.
5. S.Rajabov "Pedagogika", Toshkent, 1952 y.